



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



«XALQ XO'JALIGI SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR TADBIQI MUAMMOLARI»

MAVZUSIDAGI HUDUDIIY ILMIIY-TEXNIK KONFERENSIYASI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



Chorvachilikda ilg'or texnologiyalar
va innovatsion yechimlar



Dasturlash, kiber xavfsizlik va qishloq
xo'jaligi fan sohalari integratsiyasi



Ta'lim va ishlab chiqarishda innovatsiyalar,
tahlil va prognozlash vositalari



27-dekabr 2023 yil

Konferensiya IL-392103072-
"Chorvachilik komplekslarini
elektron boshqarishning mobil
ilovasini yaratish" innovatsion
loyiha doirasida olib borilgan
ilmiy-amaliy tadqiqotlar
natijalariga bagishlangan



Nukus sh. A.Dosnazarov k. 74 uy



(61) 222-49-10



www.uzplf.uz



www.tatunf.uz

| | |
|---|------------|
| <i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiy texnologiyalarning samaradorligini oshirish usullar va diagnostika vositalari | 238 |
| <i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiyotda signallariga raqamli ishlov berish usullari | 242 |
| <i>Б.А.Файзуллаев, А.Я.Байназаров, Г.Б.Кипшақбаева</i> Классификация неопределенности по различными характеристиками | 245 |
| <i>Sh.Rustamov, D.Jo'rayeva</i> Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili | 247 |
| <i>Z.N.Ibragimova</i> Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish | 250 |
| <i>A.A.Rashidov</i> Bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari | 253 |
| <i>D.X.Axmadjonova, J.X.Homidjonov, J.R.Homidjonov</i> Matematika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari | 255 |
| <i>F.F.Ollamberganov</i> Videokuzatuv kameralardagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash usullari | 258 |
| <i>A.Kalbaev</i> Ma'g'lumatlardin intelektual analizi tiykarinda medicinaliq diaqnoz qo'yiw maseleleri | 261 |
| <i>M.H.Xoliqnazarov, N.Y.Mo'sajonova</i> Она тили фанида ёзма нутқни ривожлантиришда акт воситаларидан фойдаланиш | 266 |
| <i>N.Sabitova</i> Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda su'niy intellektning qo'llanishi | 269 |
| <i>L.Raximova, N.G'anijonova</i> Dasturiy ta'minot loyihalarini boshqarish usul va vositalari. | 273 |
| <i>O.A.Asrorov</i> Talabalarga fanlarni o'qitishda axborot xavfsizligini ta'minlash. | 276 |
| <i>A.Qahramonov, U.Sharopov</i> Ta'lim jarayonida srim prognozlash metodikasidan foydalanish | 279 |
| <i>A.A.Sa'dullayev</i> axborot xavfsizligining ta'limdagi o'rni | 282 |
| <i>A.A.Sa'dullayev</i> Virtual texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq etish | 284 |
| <i>J.T.Sunatov</i> Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi | 287 |
| <i>J.T.Sunatov, R.T.Rustamov</i> Ta'limda innovatsion texnologiyalar | 291 |
| <i>N.M.Ustamova</i> Bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish | 293 |
| <i>N.O'Sulaymonova</i> Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari | 295 |
| <i>O.A.Sattarova</i> Kichik energiyali ionlarning qattiq jism sirtidan sochilish jarayonini o'rganish | 299 |
| <i>B.J.Mamanazarov, M.O. Meyliqulov</i> Virtual o'quv muhitida talabalarining o'zlashtirish natijadorligi | 303 |
| <i>Z.A.Abdukarimov</i> Computer linguistics in development stages | 307 |
| РЕФЕРАТИВ ҲИСОБОТ | 312 |

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Z.N.Ibragimova (Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti magistranti)

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyili asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi va bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari alohida yoritilgan. Ularni tayyorlash ta‘lim jarayonining asosiy vazifasi bo‘lib, pedagogning kasbiy va psixologik tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan muhim masalalar yoritilgan .

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, pedagog, kommunikativ, kompetentlik, muloqot, munosabat, madaniyat, yondashuv, ta‘lim oluvchi, o‘zaro ta‘sir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning yetuk inson bo‘lib kamol topishida pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. Biz uchun taniqli bo‘lgan rus pedagogi S.Suxomlinskiy shunday deb aytgan “Yaxshi murabbiy bo‘lgan taqdirdagina yaxshi pedagog bo‘lish mumkin. Pedagogning butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa befoyda yukka aylanib qoladi.” Pedagogning tajribali mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yosh avlodni mehnat faoliyatlarida o‘z o‘rnini egallashlariga, sifatli ta‘lim olishlariga yordam berishi kerak, ammo bunday vaziyatda eng muhimi shaxsni talabga to‘la javob beradigan darajada shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bo‘lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi muhim muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bo‘lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta‘lim jarayonining muhim vazifasi bo‘lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Ma‘lumki, insonparvarlik pedagogikasi pedagogik o‘zaro ta‘sirning eng samarali usulini tan olib, bunda o‘zaro tushunishga erishiladi va muloqot orqali ta‘lim oluvchilar bilan o‘z pozitsiyalarini kelishib oladilar. Rus pedagoglari - A.A.Bodalev, O.I.Danilenko, V.A.Kan-Kalik, A.A.Leontiev, N.V.Kuzmina va N.E.Shchurkovalar o‘z tadqiqotlarida pedagoglarning ta‘lim oluvchilarga nisbatan insonparvarlik pozitsiyasini egallash va o‘zlarining kasbiy vazifalarini to‘g‘ri shakllantirilgan muloqot orqali amalga oshirishga qodir bo‘lgan pedagoglarga bo‘lgan ehtiyoj ularning kelajakda kommunikativ kompetensiyani maqsadli

rivojlantirish lozimligini isbotladilar. Shuningdek, rus pedagoglaridan: M.E.Bershanskiy, V.V.Guzeev, L.I.Denisovich, E.F.Zeer, I.A.Qish, T.E.Isaeva, O.M.Karpenko, G.M.Qo'jaspurova, O.E.Lebedev, O.I.Lukyanenko, K.G.Mitrofanov, G.K.Selevko, I.I.Seregina, O.V.Sokolova, A.V.Xutorskoy va V.A.Yakuninlar tadqiqotlarida "kompetentlik" va "kompetentlik" tushunchalarini tahlil qilish bilan birga ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini ko'rib chiqadilar. Rossiya pedagogikasida V.A.Adolf, T.E.Isaeva, N.B.Krilova, I.A.Kolesnikova, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M. Mitina, A.I.Mishchenko, E.M.Pavlyutenkov va V.A.Slasteninlar o'z asarlarida kasbiy-pedagogik kompetentsiya, N.N.Bogomolova, Yu.N.Emelyanov, I.A.Zimnyaya, M.I.Lukyanova, I.I.Rydanovalar esa bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish masalalarini, L.K.Geyxman, I.I.Zaretskaya, E.E.Kosilo, I.I.Rydanova, N.V.Kuzmina, J.Raven va L.M.Mitinalar kommunikativ kompetensiyaning strukturasi ochib berishgan bo'lsa, Yu.N.Emelyanov, D.A.Ivanov, S.V.Krivtsova, N.V.Kuzmina, A.K.Markova kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish manbalari E.B.Bystray, V.G.Kostomarov, A.N.Leontiev, T.I.Lukyanenko va A.V.Mudriklar ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish muammosini tadqiq qilishgan. Demak, kommunikativ kompetentsiya bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirishiga qaramay bu muammo zamonaviy pedagogika fani va o'quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Mazkur muammo nazariy jihatdan to'liq ishlab chiqilishiga qaramay, bugungi kunda pedagogik jarayonda "pedagog-o'quvchi" munosabatlarida turli xil ko'rinishdagi muammolar uchray turadi. Chunki hanuzgacha aksariyat pedagoglar o'z faoliyatlari davomida o'quvchilarning o'quv jarayonidagi o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari, fikrlari va xatti-harakatlaridagi mustaqilliklaridan mahrum qilish payidalar va ularni tartibga solinishiga e'tibor qaratadilar. Ushbu qarama-qarshiliklarning yuzaga kelish sabablaridan biri - pedagogning kasbiy faoliyatini amalga oshirishida insonparvarlik tamoyiliga asoslanmasligidadir. Kasbiy faoliyatda insonparvarlik tamoyiliga tayanish pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u kasbiy tayyorgarlikning dasturiy mazmuni sifatida qadriyatli munosabatlar tizimini belgilashni o'z ichiga oladi. Biz ushbu maqola doirasida bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishni ta'limning insonparvarlik paradigmasi kontekstida ko'rib chiqamiz. Bunda ta'limning qadriyatlari sifatida birinchi navbatda o'quvchilarga ko'maklashish, ularni pedagogik qo'llab-quvvatlash va hamdardlik ko'rsatish; so'ngra pedagogga o'z shogirdlari uchun axloqiy xulq-atvor namunasi va yuqori muloqot madaniyatiga ega bo'lish, ular bilan muloqot qilish orqali hamkorlikda ijod qilishga qodir bo'lishga chaqiriladi. Mazkur

maqolamizda ko'tarilayotgan muammoni tahlil qilish jarayonida quyidagi holatlar aniqlandi:

-pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirishga qo'yiladigan zamonaviy talablarning va amaliyotda o'zaro munosabatlarni amalga oshirishga an'anaviy yondashuv o'rtasidagi nomutanosiblik;

-zamonaviy ta'limning amaliy muloqot qobiliyatiga ega bo'lgan pedagoglarga bo'lgan ehtiyoji hamda bo'lajak pedagoglarini kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga yetarlicha yo'naltirilmaganligi;

-bo'lajak pedagoglarining o'quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish istagining yuqoriligi, biroq ularning kelajakdagi kasbiy-pedagogik faoliyatdagi pozitsiyasini anglashga yetarlicha tayyorlanmaganligi.

Ushbu qarama-qarshiliklar biz bayon etayotgan, ya'ni insonparvarlik tamoyili asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish muammosini shakllantirishga imkon berdi. Amalga oshirilgan kuzatuvlarimiz natijasida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentsiyalari quyidagi mezonlar yordamida rivojlantirilishi aniqlandi:

- -bolalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- -ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, g'amxo'rlik qilish, qo'llab-quvvatlash va hamdardlik ko'rsatish;
- -o'quvchining shaxsini so'zsiz qabul qilish va uning individualligini tushunish;
- -pedagogik o'zaro munosabatlarning axloqiy me'yorlariga rioya qilish;
- -pedagogik muloqot haqidagi bilimlar hajmi va ularni egallashning mustahkamligi;
- -bilimlarni qo'llashda moslashuvchanlik;
- -"MEN" konsepsiyasiga muvofiq kommunikativ harakatlarni amalga oshirish;
- -kommunikativ harakatlardan foydalanishda moslashuvchanlik;
- -o'z-o'zini nazorat qilish va o'z kommunikativ harakatlari orqali o'z-o'zini baholash.

Demak, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy xususiyati sifatida belgilanib, bu pedagogning pedagogik faoliyatini ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli insonparvarlik munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirishga tayyorligida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Suxomlinskiy. "Tarbiya haqida". Toshkent.1977 yil.18-bet.

- 2 Adilova M.F. (2022). Innovation yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 3(7), 99-106.
3. Adilova M.F. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. Eurasian Scientific Herald, 10, 53-58.
4. Adilova M.F. (2022). Psychological and pedagogical factors of innovative approach to the formation of communicative competence of the future teacher. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 304-308.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

A.A.Rashidov (Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti magistranti)

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarda dars jarayonlarini samarali o'qitishda pedagogik texnologiyalar, o'quv-bilish faoliyatini loyiha metodi vositasida rivojlantirish mexanizmlarining ahamiyati va qullanilishi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida turli interfaol usullarni qullash o'qituvchida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni, kompetensiya, innovatsiya, metod, loyihalash, mexanizm, ta'lim mazmuni.

Mamlakatimizda zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining sifat darajasini ortishi, xalqaro standartlarga muvofiq ravisha malakali karlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim tashkilotlari bilan dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni, 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli, Farmonlari va 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 6 iyundagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi oliy ta'lim muassasalariga ta'luqli Farmon, Qarorlar, shu asosda, so'ngi yillarda qabul qilinayotgan ta'limga oid bir qator hujjatlarda ta'lim jarayoniga oid bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari, o'quv-metodik, mobil-didaktik materiallarni keng joriy etgan